"AYOL – BAXT VA BARAKA MANBAI" METAFORIK MODELI: NEMIS VA O'ZBEK MAQOLLARINING QIYOSIY TAHLILI

Djuraxolova Bahora Kurbonboyevna
Nemis tili nazariy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
bahora_88@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada nemis va o'zbek xalq maqollarida ayol obrazining metaforik konseptualizatsiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ayolning oilaviy farovonlik, ruhiy iliqlik, baraka va baxt bilan bog'lanishi paremiologik materiallar asosida ochib beriladi. Nemis tilida ayolning oiladagi roli ko'proq baxt (Glück) va yorug'lik (Licht) metaforalari orqali ifodalansa, o'zbek tilida ayol quvonch, nur, fayz va baraka timsoli sifatida talqin qilinadi. Qiyosiy tahlil natijasida har ikki madaniyatda ayol ijtimoiy va ma'naviy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy subyekt sifatida konseptual modelda mustahkam o'rin egallashi aniqlanadi.

Kalit so'zlar: ayol obrazi, konseptual model, baxt, baraka, nur, quvonch, maqol, paremiologik tahlil, qiyosiy lingvistika, madaniy qadriyatlar.

Abstarct: This article analyzes the metaphorical conceptualization of the image of women in German and Uzbek folk proverbs. The study examines how women are associated with family well-being, spiritual warmth, blessing, and happiness based on paremiological materials. In German, the role of women within the family is predominantly expressed through the metaphors of happiness (Glück) and light (Licht), whereas in Uzbek proverbs women are interpreted as symbols of joy, light, grace (fayz), and blessing. The comparative analysis demonstrates that in both cultures women occupy a stable position within the conceptual model as central agents ensuring social and spiritual stability.

Keywords: image of woman, conceptual model, happiness, blessing, light, joy, proverb, paremiological analysis, comparative linguistics, cultural values.

"Ayol" konsepti lingvistik va madaniy jihatdan murakkab, makro-kontseptual tuzilma bo'lib, unda majoziy, axiologik (qadriy), ensiklopedik komponentlar jamlangan. Metafora til va ong orasidagi kognitiv bog'lanish: abstrakt tushunchani (masalan "ayol", "go'zallik", "baxt", "quvonch", "oila", "uy") konkret, tanish domenlarga (masalan: suv, gul, tosh, uy, ovqat, uy-ro'zg'or, yurak va boshqalar) bog'lash orqali anglash va tasavvur qilishni ta'minlaydi. Tilda va paremiologiyada aynan shunday metaforik-kognitiv tuzilmalar jami qadriyatlar, gender rollari, ijtimoiy normativlar va hissiy holatlar idrokini shakllantiradi. "Ayol" obraziga oid metaforalar

va paremiologik birliklar tilda nafaqat shaxsiy holatni, balki jamiyatning qadriyatlari, jinsiy stereotiplar, hissiy-ijtimoiy munosabatlarni ham aks ettiradi.

Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, o‘zbek xalq maqollarida “ayol” konsepti ko‘pincha “go‘zallik”, “mehribonlik”, “sadoqat”, “oila va uy-ro‘zg‘or” kabi jihatlar bilan bog‘lanadi. “Ayol - qimmatbaho obyekt” (“qimmatbaho tosh, zargarlik buyumi”) kabi metafora modellari mavjud. Bu model ayolning qadri, go‘zalligi, muhimligi va ijtimoiy jihatdan yuqori baholanishini bildiradi. Bundan tashqari, “ayol – uy, ro‘zg‘or, ichki makon” kabi metaforik konseptlar ham ayol uy-do‘stlik, tinchlik, quvonch, farovonlik markazi sifatida ko‘riladi. Paremiologik tahlillarda “ayol” bilan bog‘liq maqollar ko‘pincha ijobiy baho, mehr-rohat, oilaviy quvonch, xulq-odat, nafislik, iffat, go‘zallik kabi qiymatlarni ko‘rsatuvchi birliklar sifatida talqin etiladi. Shu bois, o‘zbek tilida “ayol – quvonch”, “ayol – baxt”, “ayol - oilaviy farovonlik”, “ayol - go‘zallik” kabi konseptual metaforalar keng tarqalgan.

Ilmiy manbalarga ko‘ra, nemis tilida ham *ayol* obrazini ifodalovchi maqollar va paremiologik birliklar mavjud. Bu birliklarda ko‘pincha ayolning axloqiy fazilatlari, go‘zalligi, qadriyatlari aks etadi. Masalan, nemis tilida: *Ein Weib ohne Tugend ist ein goldener Becher mit saurem* maqoli *Fazilatsiz ayol - nordon ichimlik solingan oltin kosaga o‘xshaydi* degan ma‘noni beradi; ya‘ni, maqolda ayolning tashqi ko‘rinish emas, balki ichki fazilati muhim deb ta‘kidlanadi. Bu maqol turli madaniy-lingvistik kontekstlarda ayol obraziga ijobiy, biroq ehtiyotkorlik bilan yondashishni aks ettiradi. Ayolni faqat tashqi belgilar, go‘zallik bilan emas, ichki sifatlari bilan baholash tamoyili ham mavjud. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, nemis va o‘zbek paremiologik korpuslarida ayol konsepti va metaforik obrazlarida ham o‘xshashliklar, ham madaniy farqlar bor. Masalan, qadriyat jihatidan: har ikkala til jamiyatida ayol go‘zallik, mehr, oila bilan bog‘langan.

AYOL - QUVONCH konseptual metaforasi ahamiyatli, chunki “ayol” biologik yoki jinsiy identifikator emas: u jamiyatning asosiy instituti - oila, uy-farovonlik, kelajak avlod, ibrat va barkamollik markazi sifatida qabul qilingan. Shuning uchun ayolga oid metaforalar va maqollar jamiyatning eng chuqur qadriyatlarini – hurmat, mehr-oqibat, go‘zallik, barkamollik kabi tushunchalarni aks ettiradi.

Maqollar an‘anaviy, og‘zaki xalq ijodi bo‘lgani sababli ular orqali bu qadriyatlar avloddan avlodga o‘tadi. Metaforik til esa oddiy amaliy vaziyatlardan abstrakt va hissiy holatlarga ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi. Til va metaforalar bizning dunyoni idrok etishimizga, hissiy hamda ijtimoiy qadriyatlarimizni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababdan “ayol – quvonch, baxt, oila, tinchlik, go‘zallik” kabi metaforik konseptualizatsiyalar ko‘plab jamiyatlarda (shu jumladan nemis va o‘zbek tillarida)

mustahkam o‘rnashgan. Quyida AYOL - QUVONCH konseptual metaforasining nemis va o‘zbek tillaridagi paremiyalarda voqelanishini tahlil qilamiz.

Masalan, nemis tilida: *Eine gute Frau ist Segen fürs Haus [3; 113] (Yaxshi ayol – uy barakasidir)*maqoli uyda yaxshi xotin mavjud bo‘lsa, uning uy va oilaga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini, ya‘ni u uyga baraka, farovonlik va tinchlik olib kirishini anglatadi. Maqol nemis madaniyatida oilaviy qadriyatlar va xotin rolini qadrlashni aks ettiradi. Yaxshi xotinning faoliyati va xarakteri uyning umumiy farovonligi bilan bevosita bog‘liq deb hisoblanadi. Bu paremiya orqali ayolning uy hayotidagi roli nafaqat ichki mas‘uliyat, balki oilaviy baraka va farovonlikni ta‘minlovchi subyekt sifatida tasvirlanadi.

Masalan, nemis tilida: *Eine fröhliche Frau macht das Haus hell [3; 113] (Yaxshi xotin – uyga nur)* Ushbu maqol ham AYOL - QUVONCH konseptual metaforasi doirasida tahlil qilinadi. Maqol ayolning ruhiy holati va quvnoqligi oilaviy muhitga bevosita ta‘sir qilishini ko‘rsatadi. Bu yerda quvnoq xotin oilaning ijobiy, tinch va barqaror muhit manbai sifatida tasvirlanadi, uyga nur esa metaforik jihatdan oiladagi farovonlik va quvonchni bildiradi. Maqol nemis paremiologiyasida ayolni passiv rol bilan emas, balki oilaviy farovonlikni shakllantiruvchi markaziy subyekt sifatida ko‘rsatadi.

Masalan, nemis tilida: *Ein liebes Weib ist des Mannes Glück [3; 113]* (Yaxshi xotin - erning baxti) Ushbu maqol qadimgi nemis paremiologiyasida ayolning oiladagi ahamiyatini va turmushdagi ijtimoiy funksiyasini ifodalaydi. Maqolda ayolning fazilati oilaviy farovonlik va erning baxt-saodatiga bevosita bog‘lanadi. Shu orqali ayolning tarbiyaviy, maishiy va ruhiy rolini ta‘kidlash bilan birga, nikohdagi muvaffaqiyat va uy barqarorligi qadriyatlari metaforik tarzda aks etadi. Maqolning konseptual markazi ayolning ijobiy fazilati bilan oiladagi barqarorlik va baxtni bog‘lashdir. Bu yondashuv nemis paremiologiyasida “ayol – baxt manbai” konseptual metaforasi orqali ifodalanadi. Shuningdek, maqol gender tushunchalari, oila instituti va qadriyatlar tizimining o‘ziga xosligini ochib beradi, ayolni passiv emas, balki oilaning ijtimoiy va ma’naviy farovonligida faol rol egasi sifatida ko‘rsatadi. Maqol ijtimoiy-ogohlantiruvchi va axloqiy mazmunni ham o‘zida mujassam etadi, ya‘ni oilada baxtni saqlash va tarbiyaviy muvozanatni ta‘minlash ayolning mas‘uliyati bilan bog‘lanadi. Shu bilan birga, u nemis madaniyatida nikoh va oilaviy munosabatlarni qadrlash, oilaviy qadriyatlarni targ‘ib qilish funksiyasini bajaradi.

Masalan, o‘zbek tilida: *Ayol bor joyda fayz bor [7; 176]* maqolining asosida *ayol* obrazini yuqori qadrlovchi kuchli metaforik mazmun yotadi. Bu maqolda ayolning borligi “fayz” tushunchasi bilan bevosita bog‘lanadi. “Fayz” o‘zbek madaniyatida

nafaqat moddiy baraka, balki uyga kirgan totuvlik, quvonch, iliqlik, mo'l-ko'llik va ruhiy yuksalishni bildiradi. Demak, ayolning borligi oila va jamiyatning boyishi, jonlanishi, uyg'unlashuvi bilan metaforik tarzda chambarchas bog'langan.

Masalan, o'zbek tilida: *Yaxshi xotin - uyga nur [7; 176]* maqolida ayol obraziga quvonch va baxt manbai sifatida qaraladi. Maqol metaforik tarzda ayolni oilaning ruhiy markazi va baxt yaratadigan kuchi sifatida talqin qiladi. Bu yerda "uyga nur kiradi" degan ibora quvonch va iliqlikning aniq ko'rinishi sifatida ishlatiladi, nur – mavhum tushunchani (quvonch, baxt, totuvlik) vizual va hissiy obrazga aylantiradi. Maqolning konseptual metaforik modeli shunday ishlaydi: ayol bor joyda quvonch mavjud, ya'ni ayolning fazilatlari (mehribonligi, oqilligi, fidoyiligi) oilaning barqarorligini ta'minlaydi. Shu bilan birga "nur" timsoli qadimiy madaniyatlarda quvonch, baxt, baraka bilan bog'liq bo'lgani sababli, ayolning borligi oilaga xotirjamlik va iliqlik olib keluvchi metaforik hodisa sifatida talqin qilinadi. Bu maqol shuningdek, genderga oid konseptual metafora sifatida ham o'qilishi mumkin: ayolning ijtimoiy va oilaviy roli faqat moddiy emas, balki ruhiy-emotsional quvonch manbai sifatida ko'rsatiladi. Shu tarzda ayol va quvonch o'rtasidagi bog'lanish til orqali kuchli konseptual obrazga aylanadi: ayol oilaga quvonch olib kiruvchi markaziy kuchdir, uy esa quvonchning yuzaga keladigan makonidir.

Masalan, o'zbek tilida: *Uy bekasi yaxshi bo'lsa, uyda baraka bo'ladi [7; 176]* maqolida ayol oiladagi quvonch va farovonlikning markaziy manbai sifatida tasvirlanadi. Maqol metaforik tarzda ayolning fazilatlarini oilaning totuvligi va baxti bilan bog'laydi: "uyda baraka bo'lishi" ayolning mehribonligi, oqilligi va mas'uliyatini aks ettiruvchi metafora hisoblanadi. Bu yerda "baraka" tushunchasi nafaqat moddiy farovonlik, balki ruhiy iliqlik, quvonch va oilaviy uyg'unlikni ham bildiradi. Maqolda keltirilgan *ayolning fazilati - oiladagi quvonch va baraka*ni anglatadi. Ayolning yaxshi, ijobiy xarakteri, mehribonligi va oqilona harakatlari oilaning ruhiy-madaniy holatini yoritadi, unga quvonch va totuvlik olib keladi.

Yuqoridagi maqollar tahlilidan aniq bo'ladiki, nemis tilidagi maqollarda ayolning roli ko'proq Glück (baxt), Licht (yorug'lik), Segen (baraka) tushunchalari orqali talqin qilinadi. O'zbek tilidagi maqollarda ayolning ijtimoiy vazifasi fayz, baraka, quvonch, nur sifatida ko'rsatiladi. Tahlilar ikkala madaniyatda ham *ayol*ning *ijobiy energiya, ruhiy yengillik, quvonch va uy tinchligi* bilan bog'liqligi barqaror metaforik model sifatida mavjudligini ko'rsatadi. Quyidagi jadvalda AYOL - QUVONCH konseptual metaforasining nemis va o'zbek tillaridagi paremiyalardagi voqelanishini ko'rib chiqamiz.

Nemis va o‘zbek paremiologiyasida “ayol” konsepti oiladagi ijobiy energiya, quvonch va barqarorlik markazi sifatida metaforik tarzda ifodalanadi. Nemis tilida ayol obrazlari ko‘proq Glück (baxt), Licht (yorug‘lik), Sonne (quyosh) Segen (baraka) kabi tushunchalar orqali talqin qilinsa, o‘zbek tilida quvonch, nur, baraka va fayz kabi tushunchalar orqali ifodalanadi. Har ikkala til va madaniyatda ayol oilaning ijtimoiy, ma‘naviy va emotsional hayotidagi markaziy rolini aks ettiradi va til orqali mavhum qadriyatlarni aniq obrazlar bilan bog‘lash imkonini beradi. Natijada, AYOL – QUVONCH konseptual metaforasi har ikkala madaniyatda mustahkam konseptual model sifatida mavjudligini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, nemis va o‘zbek paremiologiyasida ayol konsepti oiladagi ijtimoiy va ma‘naviy barqarorlik, farovonlik hamda quvonch manbai sifatida metaforik tarzda tasvirlanadi. Har ikkala madaniyatda ayol obrazlari mavhum tushunchalarni aniq vizual va hissiy obrazlar orqali ifodalaydi, til orqali qadriyatlar, gender rollari va hissiy-ijtimoiy munosabatlar shakllanadi. Shu bois, AYOL – QUVONCH konseptual modeli madaniy va lingvistik kontekstlarda mustahkam metaforik strukturani tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Alfermann. D. Geschlechterrollen und geschlechtstypisches Verhalten. 1. Auflage. – Stuttgart: Kohlhammer, 1996. – S. 134.
2. Beyer H., Beyer A. Sprichwörterlexikon: Sprichwörter und sprichwörtliche Ausdrücke aus deutschen und Sammlungen von 16. Jahrhundert bis zur Gegenwart. – München: C.H. Beck Verlag, 2022. – S.79.
3. Duden: Redewendungen: Wörterbuch der deutschen Idiomatik. Band 11. – Mannheim: Dudenverlag, 2008. – S. 113.
4. Lakoff G., Johnson M. Metaphors we live by. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – P. 125.
5. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2005. – B. 58.
6. Simrock K. Die deutschen Sprichwörter gesammelt. – Frankfurt am Main: Universitaetsverlag Winter, 2009. – S. 34.
7. Qosimova N., Xayriyeva M. Maqollar va matallar xalq og‘zaki ijodi janri sifatida//Innovative Development in Educational Activities, 2023. – B. 180.
8. Shirnazarova, Z. A. (2023). THE CONCEPT OF “INTERCULTURAL COMMINICATION” IN TE CONTEXT OF TODETY’S SOCIETY. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 4(03), 174-179.